

BOLALAR MILLIY O‘YINLARINI MAKTAB TA’LIM JARAYONIDA BO‘LISHI ZARURİYATI

**Maxammatov Ziyodullo Abdullajon o‘g‘li
Andijon davlat pedagogika instituti magistranti**

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalar milliy o‘yinlarining tarbiyaviy ahamiyati haqida so‘z boradi. Shuningdek, bolalar milliy o‘yinlarining shakllanishi, uning turlari va ularning bolaning aqliy va jismoniy rivojlanishiga ta’siri tahlil qilingan. Milliy o‘yinlarning maktab ta’lim jarayonida, dars jadvalida bo‘lishi zarurligi haqida ham fikr-mulohazalar bildiriladi.

Kalit so‘zlar: bolalar milliy o‘yinlari, to‘p o‘yinlari, jismoniy tarbiya, aqliy kamolot, zukko bola, tarbiyaviy ahamiyati, ritmik izchillik.

E’tirof etish kerakki, Osiyo xalqlari azal-azaldan yosh avlod tarbiyasiga eng muhim masala sifatida qaraydi. Yana shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘zbek, qirg‘iz oilalaridan kattalar bolalar bilan, albatta, turli o‘yinlar o‘ynashgan va shu jarayonda “Voy, mening polvonim!”, “Sen kuchli bo‘lib ketyapsan-a!”, “Aqli bolajonim-e, savollaringga tez javob topding-a!”, “Siz hammadan kuchli, hammadan bilimdon bo‘libsiz!” degan maqtovlar bilan ularni rag‘batlantirib, ruhlantirib turishgan. Har qanday milliy o‘yinlar bolalarni jismoniy chiniqtirish bilan birga aqliy kamolotiga katta xissa qo‘shgan.

Pedagogika fanlari doktori, professor M.Quronov G.Mardonovanning “O‘zbek milliy o‘yinlari” kitobiga bitgan so‘z boshida: “Ko‘p harakat qilgan organizm yashovchan bo‘ladi. Bobolarimiz kechirayotgan hayot tarzlariga, harakatlarga qarab o‘yinlarni kashf etganlar”, - deb yozadi. “Odam umri davomida qiladigan hatti-harakatlar, tirikchilik tashvishi, chetdan bo‘ladigan turli qarshiliklarni yengish, oilani himoya qilish kabi hayotiy vaziyatlar bu o‘yinlarga mavzu bo‘lgan. Dastlabki o‘yinlar insoniyatning bolaligi bo‘lgan terib yeyish davri bilan bog‘liq. Keyinchalik o‘yinlar mundarijasiga ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik bilan bog‘liq turlari kirib keldiki, bu hayotiy jarayonlar, yashash uchun harakat qilish, intilish bilan bog‘liqdir. Bu o‘yinlar o‘sha davrdayoq odamlarning tabiat injiqliklariga dosh berishlariga, turli kasalliklarni yengib o‘tishlariga zamin hozirlab borgan” [1].

M.Murodovanning “Folklor va etnografiya” o‘quv qo‘llanmasida bolalar o‘yinlariga: “Xalq ijodi namunasi hisoblangan bolalar o‘yinlari o‘z tarkibida muayyan ritmik izchillikka asoslangan xatti-harakat, ramziy ma’no kasb etuvchi etnografik detallar, poetik folklor namunalari, ohang va tomoshaviylik elementlarini yaxlit holda mujassamlashtirgan sintetik hodisadir”, - deya ta’rif berilgan [2]. Shuningdek mazkur o‘quv qo‘llanmada, bolalar o‘yinlarining muayyan bir qismi insoniyatning o‘z turmush tarzini badiiy talqin etish ehtiyoji tufayli bevosita mehnat qilish jarayonida shakllanganligi e’tirof etiladi. O‘zbek, qirg‘iz xalqlari o‘z farzandlarini yaxshi chavondo, mergan, kuragi yerga tegmagan pahlavon, zukko, chaqqon qilib tarbiyalash maqsadida elning barcha marosimlarida ot o‘yinlari, kurash, turli tosh, arqon, koptok o‘yinlariga alohida e’tibor qaratilgan. E’tiborlisi, XI asrda yashab o‘tgan turkshunos olim Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asarida ham bolalar o‘yinlari, jumladan, to‘p o‘yini – chavgon haqida alohida qaydlar mavjud.

O‘zbekiston hududida tarixan juda ko‘p milliy bolalar o‘yinlari bo‘lgan va ular avloddan avlodga o‘tib kelgan. “Oq terakmi-ko‘k terak”, “Berkinmachoq”, “Oshiq”, “Boychechak”, “Xola-xola”, “Qorxat”, “Ko‘pkari” kabi o‘yinlar ro‘yxatini mingga

yetkazish mumkin. “O‘zbek xalq milliy o‘yinlari” kitobi muallifi Ro‘ziqul Mustafoulov ana shunday milliy bolalar o‘yinlarining yuzdan ortig‘ini yig‘gan [3].

Bolalar o‘yinlarida xalq donishmandligi mujassamlashgan. Bolalar uchun o‘yinlar ularning yosh darajasiga qarab tanlanadi. Kichik yoshdagi bolalar kam harakatli o‘yinlar – “Mehmon keldi”, “Echki bolalari”, “Halqaga tushirish” kabi o‘yinlarga jalb etilsa, o‘smirlik yoshidagi bolalar “Chillak”, “Lanka”, “Eshak mindi”, “Uzoqqa otish” kabi jismoniy kuch talab etiladigan o‘yinlar o‘ynashadi.

“Nina, ip va tuguncha”, “To‘ptosh”, “Arqoncha bilan tutish”, “Arg‘amchi bilan sakrab yugurish”, “Kim chaqqon”, “Chambaraklarga joylashish” kabi o‘yinlar qizlarni zehni, chaqqon, hozirjavob bo‘lib tarbiyalanishiga xissa qo‘shgan. Yigitlarimiz esa “Tosh ko‘tarish”, “Arqon tortish”, “Tortishmachoq”, “Tez yugurish”, “Ushlasang-minasan” kabi milliy o‘yinlarda kuch-quvvat to‘plashgan, mardlik, jasurlik, topqirlikka o‘rganishgan.

Ruhiiy hissiyotlarni rivojlantiruvchi o‘yinlar - “Signalga muvofiq harakatlar”, “O‘ylab top”, “Tulkilarni topish”, “Qatorlar bo‘ylab to‘plar poygasi” kabi o‘yinlar bolalarga fikrni bir joyga jamlash, mulohaza qilish, e‘tiborlilik, so‘zlarni tahlil qilish ko‘nikmalarni shakllantiradi. Osiyoning o‘zgaruvchang tabiatiga mos ravishda kamol topishga yordam beruvchi “Oq ayiqlar ovi”, “Doiradan surib chiqarish”, “Bo‘ron”, “Podachi” kabi milliy o‘yinlar esa tog‘li, tabiat qo‘ynidagi hududlarda keng ommalashgan. “G‘ozlar – oqqo‘shlar”, “Podsho va vazir” kabi faqatgina dam olishga qaratilgan, xushkayfiyat beruvchi o‘yinlar esa barcha yoshdagi bolalarning sevimli o‘yinlaridan bo‘lib har qanday sharoitda, har qanday hududda o‘ynash imkoniyatini beradi.

Xalq milliy o‘yinlariga maktablarda o‘quvchilarni har kuni, har bir dars soati avvalida yoki har bir oying, haftaning ma‘lum bir kunida jalb etish mumkin. Faqatgina bunda o‘quvchilarning yoshi, maktab joylashgan hududning tabiati, milliy an‘analaridan kelib chiqqan holda o‘yinlar tanlanishi kerak. Milliy o‘yinlar o‘quvchilarni, avvalo, vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi, xalqiga, ona yurtiga bo‘lgan muhabbatini oshiradi.

Foydalangan adabiyotlar va internet saytlari:

1. Mardonova G. O‘zbek milliy o‘yinlari. T.: 2022. 3-b.
2. Murodova M. Folklor va etnografiya. -T.: 2008. 96-b.
3. <https://kun.uz/news/2022/03/20/otma-tayoq-girboydi-dim-dim-yoqolib-borayotgan-xalq-oyinlaridan-qaysilarini-bilasiz>.
4. Usmonxo‘jayev T.S., Isroilov Sh.X., Pulatov A.A., Pulatov Sh.A. Milliy va harakatli o‘yinlar: Darslik. T., 2015. 49-b.